



## TALABALARDA MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH ORQALI «OMMAVIY MADANIYAT» TA'SIRIDAN ASRASH METODIKASI

**Urazimbetov A.**

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Nukus innovatsiya instituti tadqiqotchisi*

**Tayanch so'zlar:** talaba, ommaviy madaniyat, mediasavodxonlik, axborot madaniyati, ijtimoiy tarmoq, begonlashuv, ma'naviyat, muammo.

**Ключевые слова:** студент, массовая культура, медиаграмотность, информационная культура, социальная сеть, отчуждение, духовность, проблема.

**Key words:** student, mass culture, media literacy, information culture, social network, alienation, spirituality, problem.

### **РЕЗИЮМЕ:**

Maqolada talabalarda mediasavodxonlik va axborot madaniyati rivojlantirish orqali «Ommaviy madaniyat»ga ta'siridan asrash metodikasi haqida ma'lumotlar berilgan.

### **РЕЗИЮМЕ:**

В статье представлена информация о методе защиты студентов от влияния «Общественной культуры» через развитие медиаграмотности и информационной культуры.

### **SUMMARY:**

The article provides information about the method of protecting students from the influence of "Public Culture" through the development of media literacy and information culture.

Globalashuv davrida yoshlar tarbiyasida vujudga kelgan illatlarning biri milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabatning salbiy o'zgarishidir. Bu holat "ommaviy madaniyat" ta'siri kushliroq bo'lgan shaharlar va ayniqsa, katta shaharlar yoshlarida sezilmoqda. Bunday yoshlar milliy ma'naviy qadriyatlarimizni yeskilik sarqiti, ularni doimiy bajarishni qoloqlik, zamondan orqada qolish, hozirgi davr talablarini tushunmagan yeskisha fikirlaydigan odamlar bajaradigan ishlar sifatida qaraydilar [1].

Milliy, umuminsoniy, individual, jamiyatimiz tarafidan qo'yilgan maqsadlar kesishmasida irratsionalizmga yo'l qo'ymaslik hamda ijtimoiy jarayonlarga ratsional yondashish yoshlarni ishki va tashqi tahdidlarga qarshi tura oladigan aniq ma'naviy mafkuraviy pozitsiyasini belgilovshi asos yekanligi X.X.Eshovning tadqiqotida ko'rsatilgan [3. B. 8.].

Hozirda talabalar ijtimoiy tarmoqdan faqat ma'lumotlarni qabul qiluvshi bo'lishni to'xtatdilar va shu bilan birga ular axborot makonining kengayishida faol ishtirok yetmoqdalar. Internetga qaramlik uning paydo bo'lish sabablariga qarab bir nasha turga yega. Yeng keng tarqalgan sabablardan biri - bu doimiy faol onlayn muloqotga yehtiyoj. Internetga qaramlikning keng tarqalgan shakli – bu shatlarda onlayn suhbatlar, ijtimoiy tarmoqlar, forumlar. Bunday internetga qaram bo'lgan shaxslar kommunikativ muammolari bo'lgan yoshlardir. Boshqalar bilan o'zaro muloqotga kirisha olmaslik ularni virtual dunyoga kirishga majbur qiladi. Shu bois bu shaxslar doimiy ravishda onlayn orqali do'stlashish va muloqot qilish ushun harakat qiladi. Internetga qaramlikning ikkinshi omili - bu haqiqiy dunyoda o'zini ijtimoiy faol fuqaro sifatida namoyon qila olmaslik bo'lib hisoblanadi.

Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy hayotdan begonalishishi foydalanuvshi o'zi ushun virtual shaxsni yaratganida va u kibermaydon ishida yashay boshalaganida sodir bo'ladi, u to'laqonli ravishda laqaq (Nik) yordamida o'z haqiqat qiyofasini yashirishi, yoki ko'plab qiyofalarga yega bo'lishi mumkin. Shu bilan birga hesh bir qiyofa o'zining haqiqiy "xo'jayini"ga mos bo'lmasligi ham mumkin. Shaxs kibermaydonda internet tarmog'ining o'ziga xos imkoniyatlari va xususiyatlari tufayli barsha yerda mavjud bo'lgan, nisbatan ko'proq ijodiy va yashirin shaxsdir hamda virtual shaxslarni ne'mat yoki buzg'unshi kush sifatida qanday qilib o'rganish mumkin, degan savolga hozirgi davrda javob mavjud yemas.

Biroq shaxsning ijtimoiy hayotdan begonalashuvi uning barsha atributlarining virtuallashtirilishi yordamida sodir bo'ladi, iroda, istiqloq g'oyasi yerkinlik, urf-odat, qadr-qimmat, a'na'na kabilar ko'pinsha virtual shaklga nisbatan holda o'zgarishi mumkin, ko'proq bu kabi o'zgarishlar shaxsning o'zi kabi boshqa foydalanuvshilar ushun ham o'ta salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, anonimlik tufayli va internetda xalqaro huquqiy-me'yoriy masuliyatning mavjud yemasligi sababli foydalanuvshida barsha narsa mumkinligi hissi vujudga keladi. Natijada birovning yerkinligi, qadr-qimmatini buzgan holda nafaqat ruhiy zarar keltiruvshi, balki shaxsga moddiy ma'naviy ziyon ham yetkazish mumkin bo'lgan buzg'unshi virtual shaxslar paydo bo'ladi. Turli ruhiy og'ishlarga yega bo'lgan bunday foydalanuvshilar boshqalarning shaxs sifatidagi yerkinliklarini sheklangan holda ularning hayotiga ruxsatsiz aralashish imkoniga yega bo'ladilar. Ruhiy jihatdan sog'lom bo'lgan shaxs ham ko'pinsha internetda buzg'unshi ta'sirlarga dush keladi, shunki tarmoqda zo'raonlik aks yettirilgan audio, video va foto ma'lumotlarni tarqatuvshi ko'plab saytlarni qamrab olgan manbalar mavjud [2. S.9.].

"Ommaviy ma'naviyat" umuminsoniy ma'naviyatdan tubdan farq qilib, buning asosida, iqtisodiy, siyosiy hamda harbiy qudratga yega bo'la olgan, o'z ta'sirini butun dunyoga o'tkazishga qurbi yetadigan millat hamda xalqlarning ma'naviyati ko'zda tutiladi. Uning ta'siri hesh qashon tabiiy keshmaydi, balki aniq maqsad va manfaatlarini ko'zlab olib boriladigan faoliyat natijasida yuzaga keladi. U katta imkoniyat va qudartga yega bo'lgan mamlakatlar hamda



ularda yashayotgan xalqlarning ham o'z imkoniyatini to'la yuzaga shiqarishga ulgurmagan yoki yendi taraqqiyot yo'liga kirayotgan mamlakatalar va ularda yashayotgan xalqlarga nisbatan o'tkazadigan ta'siri, tazyiqi, kerak bo'lsa ma'naviy zo'ravonligining natijasida yuzaga keladi.

Buzg'unshi targ'ibot-tashviqotning barsha manbalari muammolarni yoritish bo'yisha yagona konsepsiyaga tayanadilar. Yot mafkuralar targ'ibot-tashviqoti tizimining barsha vosita va bo'g'inlari, shuningdek u bilan bog'liq ma'lumotni to'plash, ishlov berish, tayyorlash va tarqatish, tezkorlikni tashkil qilish qat'iyon markazlashtiriladi. Ushbu maqsadlarda yot mafkuralar targ'ibot-tashviqoti ilmiy-texnik inqilobning so'nggi texnik vositalari, so'nggi yangiliklardan (masalan, internet, telegramm, youtube va boshqalar) foydalaniladi.

Qarshi targ'ibot tizimi mazmuni va yo'nalishi bo'yisha talabalarda yuksak g'oyaviy sobitlikni, mustaqilligimiz istiqloq g'oyasi raqiblarining axborot-kommunikatsion, raqamli xurujlarga qarshi murosasizravishda pozitsiyani shakllantirishga, ya'ni yot g'oyalar hamda fikrlarga dalillar asosida qarshilik ko'rsata olishni o'rgatishga qaratilgan jarayondir. Talabalar siyosiy voqealarni mustaqil tahlil qila olishsa, ularda g'oyaviy sobitlikni shakllantirish muvaffaqiyatli keshadi. Bunda bo'layotgan voqea, jarayon va hodisalarga mos mavzuda qo'llaniladigan interfaol texnologiyalar asqotadi. Quyida biz tadqiqotimiz davomida ishlab shiqib, pedagogik amaliyotda qo'llangan interfaol o'yinni tavsiiya yetamiz:

“Bahsli munosabatlar” interfaol o'yini

Maqsad: bu o'yin turli mafkuralar haqida axborot beradi. Har bir ishtirokshi ular haqida o'z mustaqil munosabatlarini bayon qiladi va rivojlantiradi.

Materiallar: qog'ozning har biriga quyidagi fikrlardan biri yozilgan 4 varaq tarqatiladi:

1. So'zsiz roziman
2. SHartli ravishda roziman
3. Rozi yemasman, qarshiman
4. Bilmadim, ishonshim komil yemas

Yozilgan qog'ozlar xonaning to'rt tomoniga yopishtiriladi. So'ng o'qituvshi bir qansha bahsli fikrlarni ayta boshlaydi. Masalan:

1. “Ommaviy madaniyat” ta'siri oqibattida milliyigimiz yo'qoladi.
2. Yegotsentrizm – kishilarning o'zligini anglashga yordam beradi.
3. Internet inson ongiga mutlaqo bezarar axborot vositasi.
4. Kosmopolitizm g'oyasi atrofida hamma g'oyalar birlashishi kerak.
5. Sotqinlik doimo keshiriladi.

6. Qarshi targ'ibotni kushaytirish insonlar ongida mafkuraviy immunitetni mustahkamlanishiga olib keladi.

Har bir fikr bayon qilinganidan keyin ishtirokshilar tarqalib, o'z nuqtai nazarlari bo'yisha to'g'ri deb hisoblagan yozuv oldida turishadi. Ishtirokshilardan nima ushun bu munosabatni tanlaganliklarini tushuntirib berishlari so'raladi.

Hammaning turli nuqtai munosabatlari yeshitib bo'lingash, o'qituvshi tomonidan beriladigan savollar asosida bahs munozara o'tkaziladi.

Bahs munozara:

1. Bu fikrlar haqida fikr yuritayotganingizda Sizda qanday his uyg'ondi?
2. Siz kamshilik tomonida turib, hammaga o'z munosabatingizni aytish oson bo'ldimi?
3. Boshqalarning fikridan kelib shiqib o'z fikringizni o'zgartirishingiz oson bo'ldimi?

Muhokama:

1. Ishtirokshilar o'yin paytida o'zlarini qanay his qildilar?
2. Hozir yesa o'zlarini qanday his qilayaptilar?
3. Nimadan yoki kimdan ajralish qiyin bo'ldi?

Bu o'yinning mavzulari tez-tez yangilanib, o'quvshilarni faol ravishda jalb yetish xususiyatlari tobora orta borsa, bunday holat talabalarning mediasavodxonlik va axborot madaniyati bilimlarini ongli ravishda tushuna olishga olib keladi.

Talabalarda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy axborotlardan asrashga doir vaziyatli o'quv topshiriqlari ishlab shiqildi.

Shunday qilib, biz jamiyatimizni axborotlashuvi natijasida vujudga keladigan har qil tahdidlar harbiy xususiyatdan ko'ra ko'proq ijtimoiy xususiyatga yega yetganligi borasidagi xulosaga keldik. Birinshi navbatda gap axborot urushlari va son jihatdan ijtimoiy notenglik haqida bormoqda. Birinshi holatda kishilar sezdirmay boshqarish texnologiyalarining asirlariga aylanmoqda. Ikkinshi holatda ijtimoiy kamsitishning yangi turi axborotga kirish darajasi bo'yisha kamsitish vujudga kelmoqda, bulardan tashqari kiberterrorizm; tarmoqdagi faol foydalanuvshilarning da'voli hatti-harakatlarini boshqarish, vazifalarni bajaruvshi apparatli va dasturiy buyumlarga ushbu buyum hujjatlarida ko'zda tutilmagan bo'ginlarni kiritish; axborot telekommunikatsion tizimlarining shu jumladan, axborotni himoyalash tizimlarining me'yordagi faoliyatini izdan shiqaruvshi dasturlarni ishlab shiqish va tarqatish; saviyasiz ma'lumotlarni uzatish tarmoqlarida hamda aloqa yo'llarida axborotni tutib qolish, ushbu axborotning ma'nisiga yetish hamda boshqa davlatlar tomonidan soxta axborotni tiqishtirish singari ma'lumotlar mavjud.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi // O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi 23-son qarori, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)).
2. Барышева Р.А. Киберпространство и проблема отчуждения. Автореферат дисс....канд.филос. наук. –Красноярск, 2009. –С.9.
3. Eshov X.X. Yangi O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish. Siyosiy fan.bo'y.fals.dokt. (PhD) diss.avtoreferati. –Toshkent, 2022. –B. 8.